

# **Uzbekistan Airways “FITUR-2023” xalqaro sayyohlik ko’rgazmasida ishtirok etmoqda**

**2023 21 Yanvar**

“Uzbekistan Airways” AJ 2023-yilning 18-22-yanvar kunlari Ispanianing Madrid shahrida bo’lib o’tayotgan “FITUR-2023” xalqaro sayyohlik ko’rgazmasida “O’zbekiston” milliy stendi tarkibida ishtirok etmoqda.

Ispaniya aviakompaniya uchun yo’nalishlar tarmog’ini rivojlantirish hamda turizm industriasi, aeroport vakillari bilan aloqalarni o’rnatish, tranzit va to’g’ridan-to’g’ri yo’lovchi tashishni yo’lga qo’yish imkoniyati nuqtai nazaridan qiziqarli bozor hisoblanadi.

Ushbu tadbir 2023-yilda aviakompaniya xizmatlarini Yevropa bozorida ilgari surish va O’zbekistonning sayyohlik salohiyatini ommalashtirish, shuningdek, “Uzbekistan Airways” AJ reyslarida yo’lovchilar oqimini oshirib potensial hamkorlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini o’rnatish uchun yaxshi imkoniyat bo’lgan birinchi keng ko’lamli professional platforma hisoblanadi.